



2. Alderson-Day and Fernyhough, 2015; for an interdisciplinary collection, Langland-Hassan and Vicente, 2018.
3. Saytaqov B. Bola baxshi. – Toshkent, 2013. – 15 b.
4. Vygotsky Lev S. Myshlenie i rech. Translated as Thought and Language, Alex Kozulin (trans.), Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
5. Wandelt, Sarah Kim. Grasp, Speech, and Internal Speech Representation in the Human Cortical Grasp Circuit. – Dissertation (Ph.D.), California Institute of Technology. doi:10.7907/0461-g107.
6. Богданов И. К. А. Очерки антропологии молчания. - Москва, 1998. – 350 с.
7. Витгенштейн Л. Философские исследования. – Москва: АСТ. Астрель, 2010. – 42 с.
8. Выготский Л.С. Мысль и слово // Выготский Л.С. Мышление и речь. — Москва, 1996. –352 с.
9. Глухов В.П. Основы психолингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. – Москва, 2005. – 351 с.
10. Груздева Е.Ф. Русский разговор. – Москва, 1993. – 365 с.
11. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва, 1974. – 81 с.
12. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. — Москва, 1969. – 214 с.
13. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Kelajak o‘qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(1), 470-475.
14. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. Kelajak o‘qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 36-40.

Internet manbalari:

15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MUSIQAGA JO‘R BO‘LISH FAOLIYATINI
SHAKLLANTIRISH**

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich,
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Sadriddinova Xurshida Kamoliddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinif o‘quvchilari hali musiqiy tajribaga ega bo‘lmaganliklari sababli, ularga musiqani tushuntirishdan ko‘ra, uni harakat orqali his etish osonroq kechadi. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchilarga musiqaning xarakteriga mos ravishda qarsak chalish, oyoq urish, aylanish, yurish yoki raqsga xos oddiy harakatlarni bajarishni o‘rgatadi. Bu harakatlar orqali bola musiqaning ritmini tanib oladi va uni ichki his bilan anglay boshlaydi.

Tayanch iboralar: Musiqaga jo‘r bo‘lish, O‘quvchilar bilan birgalikda kuylash, musiqiy harakat bajarish, musiqa tinglash, hamjihatlikda ishlash, o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etish, ritm, estetik zavq, ijodkorlik.

**ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО СОПРОВОЖДЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

Аннотация: Поскольку у учащихся начальной школы ещё нет музыкального опыта, им легче почувствовать музыку через движения, чем объяснить её. Поэтому учитель учит учащихся выполнять простые движения, характерные для хлопков, топания, вращения, ходьбы или танца, в соответствии с характером музыки. Благодаря этим движениям ребёнок распознаёт ритм музыки и начинает воспринимать её внутренним чувством.

Ключевые фразы: Музыкальное сопровождение, Совместное пение с учениками, исполнение музыкальных движений, слушание музыки, совместная работа, чувство единства, ритм, эстетическое удовольствие, творчество

**FORMATION OF THE ACTIVITY OF ACCOMPANYING MUSIC IN PRIMARY SCHOOL
STUDENTS**



Annotation: Since primary school students do not yet have musical experience, it is easier for them to feel music through movement than to explain it to them. Therefore, the teacher teaches students to perform simple movements characteristic of clapping, stomping, spinning, walking or dancing in accordance with the character of the music. Through these movements, the child recognizes the rhythm of the music and begins to perceive it with an inner sense.

Key phrases: Accompanying music, Singing together with students, performing musical movements, listening to music, working together, feeling like part of a team, rhythm, aesthetic pleasure, creativity.

Kirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqaga jo‘r bo‘lish orqali ko‘plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Eng avvalo, bu jarayon o‘quvchilarning musiqiy didi, ritmni his etish qobiliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bola musiqaga jo‘r bo‘lib kuylaganda yoki harakat bajaraganda, u musiqani tinglash, uning ohangini ajrata olish, ritmini sezish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Shuningdek, musiqaga jo‘r bo‘lish faoliyati o‘quvchilarda diqqat, xotira va eshitish qobiliyatini mustahkamlaydi. Chunki musiqiy jo‘r bo‘lish jarayonida bola bir vaqtning o‘zida kuyni eshitadi, so‘zlarni eslab kuylaydi va harakatni ritmga moslab bajaradi. Bu esa uning ko‘p yo‘nalishli fikrlashini shakllantiradi. Musiqaga jo‘r bo‘lish, ayniqsa, jamoaviylik hissini kuchaytiradi. O‘quvchilar birgalikda kuylash yoki musiqiy harakat bajarish orqali bir-birini tinglash, hamjihatlikda ishlash, o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etishni o‘rganadilar.

Bundan tashqari, bu faoliyat bolalarda estetik zavq, ijodkorlik, va musiqaga mehr uyg‘otadi. Musiqaga jo‘r bo‘lish ularning hissiy olamini boyitadi, kayfiyatini ko‘taradi va san‘atga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Oddiy ritmik harakatlarni musiqa bilan uyg‘un bajarishga o‘rgatish — bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan jarayondir. Bunday faoliyat orqali bolalar musiqaning ohangi, tempi va ritmini his qilishni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali musiqiy tajribaga ega bo‘lmaganliklari sababli, ularga musiqani tushuntirishdan ko‘ra, uni harakat orqali his etish osonroq kechadi. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchilarga musiqaning xarakteriga mos ravishda qarsak chalish, oyoq urish, aylanish, yurish yoki raqsga xos oddiy harakatlarni bajarishni o‘rgatadi. Bu harakatlar orqali bola musiqaning ritmini tanib oladi va uni ichki his bilan anglay boshlaydi.

Bu jarayon nafaqat musiqiy ritmni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarning diqqat, muvozanat, eshitish va harakatni muvofiqlashtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Harakatlarni birgalikda bajarish esa bolalarda jamoaviylik hissini mustahkamlaydi, ular bir-birining harakatini kuzatib, umumiy uyg‘unlikni saqlashga harakat qiladilar.

Qo‘shiq aytganda jo‘r bo‘lish — bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy faoliyatidagi eng muhim va sevimli jarayonlardan biridir. Bu faoliyat orqali o‘quvchilar nafaqat qo‘shiq kuylashni, balki uni to‘g‘ri, bir maromda va his bilan ijro etishni o‘rganadilar. O‘qituvchi yoki yetakchi bilan birgalikda kuyni uyg‘un tarzda kuylash, tovush balandligi, nafas olish, ritm va so‘zlarni to‘g‘ri ifodalash tushuniladi. Bu jarayon o‘quvchilarni tinglash, eslab qolish, ovozini boshqarish va jamoaviy kuylashga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, qo‘shiq aytganda jo‘r bo‘lish o‘quvchilarda musiqaga mehr, estetik did va badiiy his-tuyg‘uni rivojlantiradi. Bolalar kuylash jarayonida o‘z hissiyotlarini ifodalaydilar, bu esa ularning ichki dunyosini boyitadi va o‘ziga ishonchini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich sinflarda musiqa darslarida musiqa asbobida jo‘r bo‘lish faoliyati orqali bolalar musiqani nafaqat tinglaydilar yoki kuylaydilar, balki musiqa asboblari yordamida uni his etish va ifodalashni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun oddiy zarbli musiqa asboblari — baraban, uchburchak, tamburin, qo‘ng‘iroqcha, kastanyetalar, doira kabi cholg‘ular mos keladi. Ular orqali bolalar musiqa ritmini ifodalaydilar va qo‘shiq yoki kuyga jo‘r bo‘lib ijro etadilar. Masalan, sekin musiqada yumshoq, sokin zarbalar, tez ohangli musiqada esa faol ritmik zarbalar chalish orqali bola musiqaning xarakterini his qiladi.

Musiqa asboblardan foydalanish bolalarda musiqaga nisbatan qiziqish va ishtiyoqni oshiradi. Oddiy zarbli asboblarda jo‘r bo‘lish orqali ular musiqiy jarayonda faol ishtirok etadilar, bu esa ularning o‘ziga ishonchini va sahna madaniyatini rivojlantiradi.



Raqs harakatlari orqali jo’r bo’lish Bu faoliyatda bolalar musiqani nafaqat eshitadilar, balki uni harakat orqali ifodalaydilar, ya’ni musiqaning ohangi, ritmi va kayfiyatini tana harakati bilan uyg’unlashtiradilar. Raqs harakatlari orqali jo’r bo’lish o’quvchilarning musiqiy sezgirligi, his-tuyg’usi, ritmi his etish qobiliyati va harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi. Bunday mashg’ulotlarda bolalar musiqa xarakteriga mos ravishda yumshoq, sokin, shodon yoki tezkor harakatlar bajaradilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O’qituvchi bu jarayonda o’quvchilarga musiqaning kayfiyatini tushuntirib, unga mos oddiy raqs harakatlarini ko’rsatadi. Bolalar esa bu harakatlarni takrorlab, asta-sekin o’zlari ham musiqaga mos harakatlar o’ylab topishni o’rganadilar. Bu esa ularning ijodkorligini oshiradi va musiqani chuqurroq his qilishiga yordam beradi.

Raqs harakatlari bilan jo’r bo’lish o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol va quvnoq ruhda saqlaydi. Shu orqali musiqa darslari bolalar uchun nafaqat o’rganish, balki quvonch va zavq manbaiga aylanadi.]

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida musiqaga jo’r bo’lish faoliyatini shakllantirish — bu faqat musiqiy mashg’ulotlarni o’tkazish emas, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, estetik tarbiyasi va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan keng ko’lamli pedagogik jarayondir. Jo’r bo’lish faoliyati orqali bola musiqani faqat eshitmaydi, balki uni his qiladi, ifodalaydi va o’z tana harakati yoki ovozi orqali namoyon etadi. Bunda u musiqaning ohangi, tempi, ritmi va kayfiyatini anglaydi, bu esa bolaning musiqiy dunyoqarashi va hissiy olamini boyitadi. Shu bilan birga, musiqaga jo’r bo’lish mashg’ulotlari o’quvchilarning eshitish, diqqat, xotira, tafakkur va nutq qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Musiqa darslarida qo’shiq aytganda, ritmik harakatlar, raqs yoki asboblarda jo’r bo’lish bolalarda jamoaviylik, hamjihatlik va o’zaro hurmat tuyg’ularini shakllantiradi. Ular bir-birining harakatiga yoki kuylashiga e’tibor beradi, uyg’unlikni saqlashga intiladi. Natijada musiqiy jarayon bolalar uchun birgalikda ijod qilish, o’zini ifoda etish va o’z imkoniyatlarini namoyon etish imkoniyatiga aylanadi.

Shuningdek, musiqaga jo’r bo’lish faoliyati o’quvchilarda estetik zavq, go’zallikni his qilish, badiiy did va musiqaga mehrni shakllantiradi. Musiqa bolalarning ichki dunyosiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, ularni mehribonlik, quvonch, samimiyat, mehnatsevarlik kabi ijobiy his-tuyg’ularga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’quvchilarida musiqaga jo’r bo’lish faoliyatini shakllantirish — bu ularni nafaqat musiqiy jihatdan, balki ma’naviy, hissiy, intellektual va ijtimoiy tomondan rivojlantiruvchi muhim pedagogik vositadir. Shu sababli, har bir musiqa o’qituvchisi dars jarayonida bolalarni musiqaga faol jalb etish, ularni kuylash, harakat qilish va asboblarda chalish orqali musiqani his etishga o’rgatishi zarur. Ana shundagina musiqa darslari bolalarning qalbiga chuqur kirib boradi va ularning hayotida san’atga bo’lgan muhabbatning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Ibrohimov, X. Nurmatov. “Umumiy ta’lim maktablarini 7-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma” T. 1994y.
2. O. Ibrohimov. “O’zbek xalq musiqa ijodi” T. 1994y.
3. O.Fayziev va boshqalar. O’quvchilarda musiqiy nafas tarbiyasini shakllantirish yo’llari T. 1992y.
4. O. Ibrohimov va boshqalar. “Ettinchi sinf uchun musiqa darsligi” T. 2002y.
5. Shokirxanov, B., & Axmedova, E. Z. (2025). RUBOB PRIMANING TUZILISHI VA IJROCHILIK HOLATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 438-440.
6. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.
7. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorxon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.
8. Sayfiddinovich, A. B. (2025). Dirijorlik fani haqida. *Research Focus*, 4(Special Issue 3), 222-233.
9. Axmedov, B., & To’lanova, M. (2025). RITMIK CHIZGILAR VA TUZILISHLAR HAMDA BADIY OBRAZLAR YARATISH ORQALI BOLALAR TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 447-450.
10. Toshmatov, G. (2025). YEVRONA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIM VA UNGA O’QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. *Research Focus*, 4(3), 81-84.



11. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA’LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 491-493.
12. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM BO’YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Research Focus*, 4(Special Issue 3), 244-252.
13. Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(11), 19-24.
14. Axmedov, B., & Muxammatova, G. (2025). MUSIQA MASHG ‘ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 371-375.
15. Shokirxanov, B., & Zarifxonova, D. (2025). MUSIQA TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA KO‘P OVOZLI IJRONING DIDAKTIK AHAMIYATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 510-512.
16. Axmedov, B. (2024). AN’ANAVIY MUSIQA IJODIYOTINING AKUSTIKA VA LAD XUSUSIYATLARI. *Nordic_Press*, 5(0005).

RESURLARNI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Saparova Umida Baxromovna

(<https://orcid.org/0009-0005-5709-4073>) umidasaparova7@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko‘chasi 1-uy, Tashkent 100149, o‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada resurslarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari yoritilgan. O‘quvchi shaxsida vaqt, bilim, energiya va moddiy resurslardan oqilona foydalanish malakalarini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchi, oila va ijtimoiy muhitning bu jarayondagi o‘rni, shaxsning o‘zini boshqarish, mas’uliyat va rejalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari resurslarni boshqarish ko‘nikmalari ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim omili ekanini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: resurslarni boshqarish, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, shaxs rivoji, mas’uliyat, rejalashtirish, o‘zini boshqarish, ta’lim samaradorligi.

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF FORMING RESOURCE MANAGEMENT SKILLS

Saparova Umida Bakhromovna

(<https://orcid.org/0009-0005-5709-4073>) umidasaparova7@gmail.com

Tashkent University of Applied Sciences, 1 Gavhar Street, Tashkent 100149, Uzbekistan

Abstract. This article discusses the psychological and pedagogical aspects of the formation of resource management skills. Methods for developing the skills of rational use of time, knowledge, energy and material resources in the student are analyzed. The role of the teacher, family and social environment in this process, the role of the individual in developing self-management, responsibility and planning competencies, is also shown. The results of the study substantiate that resource management skills are an important factor in achieving success in the educational process.

Keywords: resource management, psychological characteristics, pedagogical approach, personal development, responsibility, planning, self-management, educational effectiveness.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ УПРАВЛЕНИЯ РЕСУРСАМИ

Сапарова Умида Бахромовна